



## XORAZM SHEVALARIDAGI AYRIM QOVUN NOMLARI

Avezova Hulkar Madaminovna

Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi

### Annotatsiya

Mazkur maqolada Xorazm hududida o'sadigan ayrim qovun navlarining nomlanishiga doir mulohazalar bayon qilingan. Xorazm viloyatlaridagi qovun navlarining nomlanishidagi farqlar tahlil qilingan.

### Kalit so'zlar

Fitonim, sheva, qovun turlari, semantika, atama, tahlil, poliz ekinlari nomlari, lug'at.

### Аннотация

В данной статье приведены комментарии к наименованиям некоторых сортов дынь, произрастающих в Хорезмской области. Проанализированы различия в наименовании сортов дыни в Хорезмской области.

### Ключевые слова

Фитоним, диалект, виды дынь, семантика, термин, анализ, названия поликультурных культур, словарь.

### Abstract

This article provides comments on the names of some varieties of melons growing in Khorezm region. The differences in the naming of melon varieties in the Khorezm region are analyzed.

### Key words

Phytonym, dialect, types of melons, semantics, term, analysis, names of multicultural cultures, dictionary.

Xorazm aholisi juda qadim zamonlardan oq polizchilik bilan shug'ullanishgan va yashash manbalarining biri sifatida uni rivojlantirgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, ibtidoiy sug'orma dehqonchilik bilan bir qatorda, Xorazmda daryo havzasida, uning tarmoqlari va sun'iy kanallar etaklarida poliz ekinlari yaxshi hosil bergan. Amudaryo havzasidagi qator yerlarda yetishtiriladigan qovunlar o'zlarining shirinligi, xushbo'yligi va yuqori oziqliligi bilan farq qiladi. Ular qadim zamonlarda uzoq-uzoq mamlakatlarda ham mashhur bo'lgan. Bu qovunlar zardan ishlangan maxsus qog'ozlarga o'ralib, Bag'dodga, arab xalifalari saroyiga olib keltirilgan.

Amudaryo etaklarida yashovchi xalq qovun va qovoqni o'zlarining odatiy ovqati, deb hisoblaydilar. Shuning uchun ular uzoq safarga chiqqanlarida o'zlari bilan ko'proq qovun olib ketishga harakat qilganlar. XIX asrning boshlariga oid bo'lgan bir tarixiy voqea poliz ekinlari Xorazm aholisi hayotida qanchalik ahamiyatli ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Aytishlaricha, Xiva xoni Qo'ng'irotni qamal qilib, ularning barcha ekinlarini payhon qilib bo'lgach, ahvoli tangligini va tezda taslim bo'lishi lozimligini taklif qiladi. Ammo qamaldagilar bunga rozi bo'lishmaydi va ularga lo'nda qilib quyidagi javobni yo'llaydi:



Uch oy qovunim, uch oy sovunim,

Uch oy qovog‘im, uch oy chavog‘im.

Boshqacha qilib aytganda, bu o‘lkada yashash manbalari ichida chorvachilik (sovunim – sut), baliqchilik bilan bir qatorda, polizchilik ham asosiy o‘rinni egallaydi.

Xorazm hududida poliz ekinlari nomlarining atalishida ham o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, birgina qovunning yumaloq, eti qalin, sersuv, shirin turi gurvak deb atalsa, mahalliy yozgi nav, ertapishar qovunlar Xorazm viloyatining turli tumanlarida: qarriqiz, oqnovot, shirinpechak kabi nomlar bilan ataladi. Xorazmning birgina Yangibozor tumanida qovunning: trish, tarpeda, tarlama, gurvak, qorriqiz kabi turlari borligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Hazarasp tumanida qovun turlaridan qarriqiz, bo‘fikalla, oq navat kabi turlari juda mashhur. O‘zbek adabiy tilidagi kabi Xorazm shevalarida ham ushbu fitonim quyidagi ma‘nolarni anglatadi: 1. Ma‘lum ekin nomi: quvym äk-, quvym atyz kabi. 2. Mazkur ekinning hosili: quvym ye- kabi. Ma‘lum bir so‘zning o‘shimlik turi va uning mevasi yoki hosilini anglatishi katta ko‘pchilik fitonimlar uchun xosdir. Ma‘lum ekin nomini anglatgan “atiz” so‘zi Xorazmda, asosan, qovun, tarvuz, bodring kabi palak otib o‘sadigan ekinlarning joy nomiga nisbatan ishlatiladi va muayyan poliz ekinining nomi atiz/otiz so‘zi oldidan keltirish orqali hosil bo‘ladi: qovun otiz, tarviz otiz kabi.

Umuman, Xorazm shevalarida ham qovunlarning ko‘plab navlari nomi mavjud bo‘lib, ularning ba‘zilari boshqa o‘zbek shevalari bilan mushtarak bo‘lsa, ayrimlarining nomlari faqat ushbu mintaqaga xosdir. Shu xususiyatga ko‘ra ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Boshqa o‘zbek shevalari va ayrim turkiy tillarda uchraydigan umumiy nomlar: Beshäk // biyshak – shakli cho‘zinchoq, tuxumsimon, sariq- yashil, to‘fli, po‘sti qalin qattiq qovun. Uyg‘. beshäkchi, qoz. beshek, qirg‘. beshäk, turkm. bishek // bisheki va hokazo.

Gulobi. Xor. gula:v’ // gulaby // gulavy va uning turlari qaragula:v’,

kök gulaby. Bu nom turkman va qoraqalpoq tillarida ham uchraydi.

Begzad’ (Xor.). Boshqa o‘zbek shevalarida beczadi // be:zat // begzot // beczot // begzodi // begizot // behzoti shakllarida uchraydi. Uyg‘. behzada // bəgzədə, turkm. bedza:da kabi.

2. Xorazm vohasi turkiy tillarida uchraydigan nomlar. Bunday nomlar mintaqa fitonimik tizimi uchun xarakterli bo‘lib, uning qoraqalpoq va turkman tillarida ham uchrashi ularning voha aholisi bilan yaqin madaniy va iqtisodiy aloqalari natijasi sifatida izohlanadi.

Gurvæk. Xorazm shevalarida ham ushbu fitonim turli shaklda talaffuz qilinadi: gurvæk // gurbæk // gurvek kabi. Ushbu fitonim Xorazm vohasiga chegaradosh hudud turkiy tillarida, jumladan, turkm. gurbek // gurvek; qq. gurbek, gurbek qao‘fun – shakli dumaloq, go‘shtdor, sersuv va shirin yozgi qovun. Qoraqalpog‘istondagi ayrim qozoqlar dialektida ham gurbek // qurbek // gurbuk<sup>1</sup> shaklida ishlatiladi. SHuningdek, aqqash, aqnavat, azg‘ym // a:zg‘ym, xəsəki, tarlavıq // tarlavuq, shəkərpa:ra kabi qovun nomlarini ifodalovchi fitonimlar ham qozoq, qoraqalpoq va turkman xalqlarining Xorazm mintaqasi bilan chegara xududlarida joylashgan aholi tilida ko‘proq uchraydi. Xor. aqnavat // a:qnavat, qoz. aqnabat // aqnauat, turkm. aqnabat; Xor. aqqash, qq. aqqas, turkm. akgash; Xor. azg‘ym // a:zg‘ym, qq. azg‘ym; Xor. xəsəki, qq. qəseki, turkm. xasseki; Xor. tarlavıq // tarlavuq, qq. tarlama, tarlama qao‘fun, turkm. tarlavuq; Xor. shəkərpa:ra, qoz. shekerpara, qq. sekerpara. Ushbu fitonim tojik tilida shakarpara shaklida ishlatiladi<sup>2</sup>.



Xorazm shevalarida uchraydigan ayrim qovun nomlari faqat turkman tilida mavjud. Masalan, Xorazmda murrik // murr'k<sup>3</sup>, turkman tilida murruk<sup>4</sup>; Xorazmda læ:shəki, turkmanchada læsheki kabi<sup>5</sup>. Shuningdek, gökchä // chökje (yozgi qovunning ichi qizil, usti qalin to'q'li turi), bavashixy // babashyx (eti qizg'ish, po'chog'i ko'kish, serto'f yozgi qovun), vaxarmany // vaxarman ( usti ko'kish-sarg'ish, serto'f yozgi qovun), nanyigösh // na:nyg'ö:sh (kamto'f, rangi ko'k, mag'zi qalin, yozgi qovun) kabi turlari bor. Qovun navlarining kelib chiqishi to'g'risida boshqa navlardan ham ko'plab misol keltirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, respublikamizdagi har bir o'simlik nomining o'ziga xos tarixi va ma'nosi bor. Ular o'simlikda o'zining nomini yaqqol namoyon qilib turadi. O'lkamizdagi boshqa yuzlab qovun nomlarining kelib chiqishi, ma'nosi haqida ham qiziq-qiziq ma'lumotlar borki, ularni til boyligimizning bir qismi bo'lgan polizchilikka xos so'zlar doirasida istagancha topish mumkin.

Xiva shahrida Xorazm zaminida yetishtirilgan 60 ga yaqin navdagi tilyorar qovunlar namoyish etildi. Ular orasida amiri, bo'rikalla, ola bo'rikalla, gulobi, obinovvot, ko'kcha, temirtirnoq, gulasal, qoraqand, do'ppi, sherozi, shakarpalak kabilar ayniqsa ishtirokchilar e'tiborini tortdi. Saylda 200 dan ziyod fermer xo'jaligi xaridorlarga ikki ming tonnadan ortiq mahsulot taklif etdi.

Bugun mamlakatimizda qovunning 160 ga yaqin navlari mavjud. Shundan 45 tasi davlat reestriga kiritilgan. E'tiborlisi, O'zbekiston qovunlari dunyoning boshqa hududlarida parvarishlanadigan turdoshlariga nisbatan qator afzalliklarga ega. Xususan, betakror ta'mi va shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, rang-barangligi, xilma-xil shakli bilan farqlanadi. Hatto nav nomlari ham o'ziga xos: "Bosvoldi", "Amiri", "Obinovvot", "Bo'rikalla", "Zargulobi", "Gurvak", "Jo'raqand"... Mirzacho'l vohasi dehqonlarining ham bu borada o'z "brendi" bor. Bu ayni kunda nafaqat yurtimiz, balki okeanorti, Yevropa mamlakatlari va dunyoning boshqa mintaqalarida tobora mashhur bo'lib borayotgan, xalq ichida "Metrovka", "Torpedo", "Jiyan urug'" degan nom bilan tanilgan "Mirzacho'l oq urug'"dir.

Ko'rinadiki, Xorazm hududida poliz ekinlari nomlarining atalish usullari ham o'ziga xosdir. Qovun nomlarining ifodalanishida mazasi, shirinligiga ko'ra atalish yetakchilik qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-Toshkent, O'zbekiston, 2018. – B.62.
2. Salohiddinov S. O'simliklar sistematikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1966.
3. Saparov M. Turkiy tillarda poliz ekinlari nomlari // O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1990. – B.176-250.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-, 2-, 3-, 4-, 5-tomlar. –Toshkent: O'zR ME.
5. X.Narimov.Xorazm mintaqaviy fitonimlarining lisoniy tahlili.Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori...dis. avtoreferati.-Urganch ,2020.-28 b